

"Tomchi" mobil ilovasi tanlovi

Xabaringiz bor Respublika miqyosida o'tkazilayotgan "Tomchi" mobil ilovasi tanlovi barcha ayni shu sohada mehnat qilayotgan, ta'lif olayotgan yoshlarning doimiy ishtirok etishni istagan, qiziqayotgan sohasiga aylandi desak, adashmagan bo'lamiz.

Joriy yilning fevral oyida "Tomchi" mobil ilovasi tanlovi 1-bosqichi bo'lib o'tgan bo'lsa, bugun Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida esa 2-bosqichi g'oliblarini taqdirlash tadbiri bo'lib o'tdi. Talaba-yoshlar va ishtirokchilar uchun 300 kishilik mazali shirinlik va taomlarga bor kofe-break tashkil etildi hamda tarqatildi. Tadbirni "Gidromelioratsiya" fakulteti dekani A.Fatxullayev ochib berdi hamda kelgan mehmonlarga so'z berildi. "Tomchi" mobil ilovasi tanlovi 2-bosqichi g'oliblari taqdirlandi. Kelgan mehmonlar va tashkilot hamda idora vakillari g'olib bo'lgan talaba-yoshlarni, xodimlarni chin dildan muborakbod etishdi.

Eng quvonarlisi institutimiz va institutimizning Buxoro filialidan jami 16 nafar ishtirokchilar g'olib deb topildi, va ularga qimmatbaho sovg'a, g'olibligi uchun Smartfon taqdim etildi. Yana bir bor institutimiz g'olib talaba-yoshlarini va ularning ota-onalarini tabriklaymiz. Keyingi o'qish va ishlarda omad tilaymiz. Siz ham ishtirok eting, keyingi g'olib aynan siz bo'llishingiz mumkin.



Institut yoshlar ittifoqi BT yetakchisi axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov